Sanoat korxonalarini joylashtirish nazariyasi XIX asrda V. Launxardt va A. Veber tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik V. Kristallerning "markaziy joy" nazariyasi, F. Perruning "rivojlanish qutbi", J. Fridmanning "mintaqa yadrosi" modeli kabi nazariyalar bilan boyitildi. U. Izardning "bozor nazariyasi" va D. J. Gelbreytning "industrial jamiyat" konsepsiyasi esa zamonaviy sanoat siyosatini shakllantirishga nazariy asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda esa B. Ro'zmetov, Q. Abirqulov, A. Soliyev, M. Abdusalomov, G. Zaxidov, Z. Hakimov va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan yengil sanoatning mintaqaviy rivojlanishi, klaster usuli va ishlab chiqarish samaradorligi masalalari chuqur o'rganilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yengil sanoatning mintaqaviy rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda ilmiy nazariy va amaliy usullar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Nazariy-uslubiy asoslar - Sanoat korxonalarini joylashtirishga oid klassik nazariyalar (A. Veber, V. Kristaller, F. Perru, J. Fridman va boshqalar) hamda zamonaviy yondashuvlar (M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi, klaster modeli) asos qilib olindi [7]. Hududiy iqtisodiy rivojlanish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

Tahliliy yondashuvlar - Yengil sanoat tarmoqlarining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi, bandlik va eksport salohiyatidagi o'rni statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Mintaqaviy tafovutlarni aniqlash uchun hududlar kesimida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari solishtirildi. Dinamik tahlil orqali sanoat rivojlanishining 1991–2020-yillar davomida bosqichma-bosqich o'zgarishi baholandi.

Empirik usullar - Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar asosida jadval va grafiklar shakllantirildi. Ayrim viloyatlar kesimida yengil sanoat korxonalarining joylashuvi va ishlab chiqarish samaradorligi o'rganildi.

Qiyosiy tahlil - O'zbekiston tajribasi jahonning rivojlangan davlatlari yengil sanoat rivoji bilan solishtirildi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va klaster tizimini qo'llash borasidagi xorijiy amaliyotlar bilan taqqoslash amalga oshirildi.

Sintez va umumlashtirish - Olingan natijalar asosida hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yengil sanoatning mustaqil tarmoq sifatida shakllanishi ijtimoiy ishlab chiqarish tizimining alohida sohasi bo'lib, bu jarayon ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Sanoat — muayyan tarixiy sharoitda paydo bo'lgan, o'ziga xos qonuniyatlar asosida taraqqiy etuvchi va obektiv borliqning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. U zarur resurslar, sifat va miqdor ko'rsatkichlari, imkoniyatlar bilan bir qatorda qarama-qarshiliklar bilan ham to'qnash keladi. Sanoatning shakllanishi va rivojlanishi esa ishchilar sonining ortishi, ularning jamiyatdagi ahamiyatining oshishi bilan kechadi.

Industrial ishlab chiqarishning shakllanishi va ularning hududiy joylashuvi bilan bog'liq nazariy qarashlar XIX asrning 80-yillarida shakllana boshlagan. Fransiyalik iqtisodchi V. Launxardt sanoat korxonalarini joylashtirish tamoyillariga oid ilk ilmiy yondashuvni ilgari surgan. Uning g'oyalari keyinchalik nemis olimi A. Veber tomonidan ishlab chiqilgan "sanoat shtandortlari" nazariyasi orqali yanada chuqurlashtirilgan. Bu nazariyalarda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni iste'molchilarga yaqin joylashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligi asoslab berilgan [8].

Nemis iqtisodchisi A. Veber "Sanoat shtandarti nazariyasi" nomli ilmiy ishida sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy omil yoki yo'nalishni ajratib ko'rsatadi:

Transport omili — sanoat korxonalarining joylashuvi, birinchi navbatda, transport xarajatlarini kamaytirishga qaratiladi. Mulkdorlar o'z korxonalarini xomashyo manbalariga yoki tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazish qulay bo'lgan, ya'ni transport xarajatlari eng past bo'lgan joylarda qurishni afzal ko'radilar.

Mehnat omili — ishchi kuchining mavjudligi va uning narxi ham sanoat korxonalarini joylashtirishda muhim omildir. Mulkdorlar arzon va yetarli ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish obyektlarini qurishga intiladilar.

Aglomeratsiya omili — korxonalar boshqa sanoat obyektlari to'plangan hududlarda joylashishga harakat qiladilar. Bu yondashuv orqali infratuzilma (transport, energetika, kommunal xizmatlar) bilan bog'liq xarajatlar kamayadi va ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasida kooperatsiya imkoniyatlari kengayadi.

A. Veberning ushbu yondashuvi sanoatni joylashtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.



Ishlab chiqarishni samarali va oqilona joylashtirish orqali yuqori daromad keltiruvchi ishlab chiqarish tizimini shakllantirish g'oyasi qadimdan mavjud bo'lsa-da, aynan sanoatlashuv jarayoni boshlangan davrdan boshlab "shtandort", ya'ni ishlab chiqarishni joylashtirish haqidagi nazariyalar keng rivoj topdi.

Bunday nazariyalarning ilk namunasi sifatida nemis olimi I. Tyunen tomonidan 1826-yilda nashr etilgan "Alohida davlat, uning qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati" nomli asari hisoblanadi. Mazkur ishda u birinchi bo'lib ishlab chiqarishning joylashuvini asoslashda matematik yondashuv va aniq hisob-kitoblardan foydalangan. Bu yondashuv sanoat ishlab chiqarishini ilmiy asosda joylashtirishda muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan [9].

A. Veberning ishlab chiqarishni joylashtirishga oid ta'limoti keyinchalik bir qator olimlar – O. Englander, T. Palander, A. Lyosh va V. Kristaller tomonidan yanada rivojlantirildi. Xususan, V. Kristaller tomonidan ishlab chiqilgan "Markaziy joy" nazariyasida aholi manzilgohlarining joylashuvi va ularning hududiy tashkil topish tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. A. Lyosh esa Veberning shtandort nazariyasini takomillashtirib, uni yanada kengroq iqtisodiy tushunchalar bilan boyitdi. U o'z ishlarida monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat chegaralari, xalqaro savdo va texnologik taraqqiyot kabi tushunchalarning korxonalarni joylashtirishga ta'sirini yoritib berdi.

Korxonalarni joylashtirish jarayonida tadbirkorlarning yuqori daromad olishga qaratilgan manfaatlari bilan davlat va jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanish manfaatlari o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Shu sababli muvozanatli va strategik yondashuv zarur. Ushbu ta'limotlar bozor sharoitida samarali ishlab chiqarish tizimlarini asoslashga xizmat qilib, yangi yo'nalish va nazariyalarni shakllantirdi. Jumladan, V. Bunge "markaziy joy" konsepsiyasi, M. Skarlet "joylashishning uch tipi", F. Perru "rivojlanish qutbi" va "markazlari" nazariyalarini ilgari surdi. Bu yondashuvlar iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy omillarning ishlab chiqarish joylashuviga ta'sirini o'rganishda hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [6].

Sanoat inqilobi davrida ishlab chiqarish kuchlarining tez rivojlanishi klassik nazariyalarga tuzatishlar kiritilishiga sabab bo'ldi. Natijada bir qator yangi yo'nalishlar shakllandi: ilmiy-tadqiqot va yuqori texnologiyali sohalarining rivojlanishi, agrobiznesning mustaqil iqtisodiy sektor sifatida shakllanishi, transport va xomashyo omillarining ahamiyatining kamayishi, texnopark va ilmiy markazlarning roli ortishi, malakali ishchi kuchiga talabning kuchayishi hamda ijtimoiy va ekologik omillarning ahamiyat kasb etishi.

Shunday qilib, zamonaviy sanoat joylashuvi klassik yondashuvlardan farqli o'laroq kompleks, fan-texnika taraqqiyoti va inson kapitaliga asoslangan bo'ldi. Bu jarayonda yangi nazariyalar shakllandi: D.J. Gelbreytning "industrial jamiyat" konsepsiyasi va U. Izardning "joylashtirishning bozor nazariyasi". Xususan, U. Izard joylashtirish masalalarini iqtisodiy nuqtayi nazar bilan birga boshqaruv, resurslarni samarali taqsimlash va hududiy rejalashtirish bilan uyg'un holda ko'rib chiqishni taklif etib, zamonaviy sanoat siyosatini shakllantirishga muhim hissa qo'shdi [6].

So'nggi 200 yil davomida jahon iqtisodiyoti sanoat inqilobidan boshlab siklik rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu jarayonda sanoat tarmog'i hududiy o'sishda hal qiluvchi rol o'ynab, bir qator nazariyalar shakllandi.

J. Fridman "mintaqa yadrosi" nazariyasida markaz va periferiya o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlikni tushuntirdi. F. Perru "o'sish nuqtalari" nazariyasida iqtisodiy faollik yadro tarmoqlar atrofida jamlanishini ko'rsatdi. M. Porter mintaqaviy strategiya va raqobat ustunliklari orqali klasterlar shakllantirish zarurligini asoslab berdi. N. Kolosovskiy iqtisodiy rayonlashtirishni, Y. Shumpeter esa innovatsiya va tadbirkorlikni rivojlanish omili sifatida ko'rsatdi.

Shuningdek, V. Launxard ishlab chiqarishni eng qulay hududlarda joylashtirish g'oyasini, M. Enrayt hududiy klaster konsepsiyasini, A. Marshall esa "industrial rayonlar" modelini ishlab chiqdi.

Ushbu nazariyalar sanoat joylashuvi va mintaqaviy rivojlanish masalalarini ilmiy asoslab, zamonaviy iqtisodiy rejalashtirish siyosatini shakllantirishda muhim manba bo'ldi.

O'zbekistonda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishi, xususan yengil sanoat taraqqiyoti, hududiy tashkil etilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda klaster yondashuvi masalalari ko'plab olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan.

B. Ruzmetov sanoat infratuzilmasi va hududiy tafovutlarni, Q. Abirqulov iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy samaradorlikni, A. Soliev yengil sanoatning holati va rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil qilgan. M. Abdusalyamov klaster tizimining iqtisodiy samaradorligini, A. Sadiqov ishlab chiqarish majmualarini, A. Vaxabov, A. Yusupov va A. Qayumov sanoat siyosati va investitsion muhitni o'rgangan [5]. Shuningdek, F. Egamberdiev, B. Zaxidov, Q. Umarqulov va Z. Hakimov sanoat klasterlari va innovatsion rivojlanish masalalarini tadqiq etishgan.

A. Ortiqov sanoat salohiyatini oshirish yo'llarini, M. Narziqulov esa tarkibiy o'zgarishlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligini asoslab bergan. G. Zaxidov paxta sanoatida klaster yondashuvining ahamiyatini ko'rsatib, eksport salohiyatini oshirishni taklif qilgan, Z. Hakimov esa yengil sanoat klasterlarini hududiy sharoitlarga mos holda rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan.

Umuman, iqtisodchi olimlar tadqiqotlari O'zbekistonda sanoatni modernizatsiya qilish, hududiy tafovutlarni kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.



O'zbekiston sanoati mustaqillikdan buyon bosqichma-bosqich rivojlanib, 1991–1997-yillar boshlang'ich davr, 1997–2002-yillar ikkinchi, 2002–2010-yillar uchinchi, 2010–2016-yillar to'rtinchi va 2017-yildan hozirgi kungacha beshinchi bosqich sifatida ajratiladi [4].

Yengil sanoat rivojlanishi besh bosqichda kechdi. Birinchi bosqichda iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etilib, ko'proq qo'l mehnatiga tayanildi va arzon ishchi kuchiga ega hududlarga joylashtirildi. Ikkinchi bosqich respublika iqtisodiyotining barqarorlashuvi bilan tavsiflanadi. Uchinchi bosqichda sanoatni keng rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib, hukumat dasturlari asosida yuzlab kichik korxonalar tashkil qilindi. 2008-yilda Navoiyda erkin iqtisodiy zona tashkil etilishi kichik biznes va yengil sanoat rivojiga kuchli turtki berdi. To'rtinchi bosqichda tayyor mahsulot ishlab chiqarish kengaydi, sanoat tarmoqlari hamkorligi, texnoparklar va kichik sanoat zonalari faoliyati jadallashdi. Beshinchi bosqichda esa sanoat rivoji "Harakatlar strategiyasi" asosida takomillashib, industrial ishlab chiqarishning yangi bosqichga ko'tarilishi, bandlikni oshirish va xususiy sektor ulushini kengaytirish ustuvor vazifaga aylandi [2].

Jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarishni tezkor o'zgarishlar orqali rivojlantirish qiyin. Shu sababli, O'zbekistonda intensiv rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mintaqaning ichki imkoniyatlari va mavjud resurslaridan samarali foydalanish ijobiy natijalar bermoqda. Mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri – sanoatga innovatsion texnologiyalarni jalb etishdir. So'nggi bosqichlarda murakkabroq sanoat tarmoqlari rivojlantirilmoqda. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti aynan innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash asosida rivojlanmoqda. Sanoat tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash esa bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq mos keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda band aholining 8,9 foizi sanoat, 29,1 foizi esa qishloq xo'jaligida mehnat qilmoqda. 2010–2020-yillar davomida qishloq xo'jaligida bandlar ulushi ortib borgan bo'lsa, sanoatdagi bandlar ulushi kamaygan. Jumladan, 2010-yilda qishloq xo'jaligida bandlar 26,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 29,1 foizga yetdi. Aksincha, sanoat sohasida 2010-yilda 14,2 foiz bo'lgan bandlik darajasi 2020-yilda 8,9 foizga tushib ketgan, ya'ni 5,3 foizga qisqargan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dastlabki davrlarda aholining katta qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan va sanoatdagi ulush ancha past bo'lgan. Bu esa sanoatni yanada rivojlantirish zaruriyatini belgilab berdi. Shu nuqtayi nazardan, mehnat resurslarini ko'p talab qiladigan yengil sanoat korxonalarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zanjiri bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Shunday ekan, kelgusida bandlikni oshirish uchun mehnat talabchan yengil sanoat korxonalarini tashkil etish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Biroq, sanoat rivojlanishi hududlar kesimida teng bo'lmayapti. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida aholi jon boshiga sanoat ulushi bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilmayapti (1-jadval).

1-jadval. Respublika iqtisodiyoti asosiy ko'rsatkichlarining aholi jon boshiga taqsimoti (Respublika = 1,00) [3].

№	hududlar	2010			2015			2020.		
		Sanoat	QX	YAHM	Sanoat	QX	YAHM	Sanoat	QX	YAHM
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,23	0,48	0,49	0,41	0,49	0,44	0,51	0,47	0,56
2	Andijon	1,66	1,35	0,97	1,09	1,18	0,70	1,15	0,84	0,60
3	Buxoro	0,67	1,34	0,98	0,93	1,58	0,98	0,92	1,24	0,79
4	Jizzax	0,19	0,75	0,39	0,35	1,22	0,54	0,40	1,09	0,81
5	Qashqadaryo	1,85	1,20	1,20	0,92	0,87	0,79	0,43	0,73	0,59
6	Navoiy	1,96	0,64	0,95	3,25	1,69	1,80	1,61	0,62	0,99
7	Namangan	0,27	0,97	0,60	0,35	0,90	0,49	0,39	0,60	0,40
8	Samarqand	0,55	1,88	1,02	0,57	1,05	0,58	0,47	0,81	0,51
9	Sirdaryo	0,32	0,51	0,31	1,14	1,56	0,72	0,41	1,00	0,66
10	Surxondaryo	0,25	1,14	1,60	0,25	1,14	0,50	0,48	1,06	0,65
11	Toshkent	2,40	1,64	1,73	1,67	1,45	1,12	2,19	0,83	1,22
12	Farg'ona	1,46	1,16	1,30	0,65	0,76	0,58	0,57	0,54	0,76
13	Xorazm	0,21	0,93	0,51	0,46	1,07	0,60	0,55	0,86	0,64
14	Toshkent sh.	1,87	-	1,99	2,58	-	2,04	2,49	-	1,98



Respublika iqtisodiyotining yetakchi ko'rsatkichlari asosan Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatlarida yuqori darajada kuzatiladi. Biroq mintaqada barcha sanoat tarmoqlarini bir xil darajada rivojlantirish qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki ayrim mamlakatlarda fan sig'imli sohalar samarali bo'lsa, boshqalarida mehnat yoki xomashyo sig'imli tarmoqlar yetakchilik qiladi. Shu jihatdan yengil sanoat o'zining ko'lamdorligi bilan ajralib turib, paxta va ipak tolalarini qayta ishlashdan tortib, poyabzal ishlab chiqarishgacha bo'lgan keng yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, IX–X asrlarda Xiva va Shoshda ip, mato hamda gilam ishlab chiqarish ancha rivojlangan. Buxoro esa shoyi mahsulotlari bilan dunyoga tanilgan. Buyuk Ipak yo'li orqali O'zbekistondan Yevropa, Hindiston va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga mato, jun, ipak, charm va kiyim-kechak mahsulotlari eksport qilingan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, ayniqsa ip-gazlama sanoati yurtimizda jadal rivoj topdi.

Hozirgi kunda yengil sanoat iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida:

- umumiy sanoat ishlab chiqarishining 20 foizdan ortig'ini ta'minlaydi;
- band aholining uchdan ikki qismini ish bilan ta'minlaydi;
- eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

To'qimachilik sanoati tarkibida paxta, jun, kanop va boshqa xom ashyolar chuqur qayta ishlanib, turli gazlamalar ishlab chiqariladi. Bu sohaning yengil sanoatdagi ulushi eng yuqori darajada. Shuningdek, O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'li markazida joylashganligi o'zbek hunarmandlarining ipak va shoyi mahsulotlarini butun dunyoga mashhur qilgan. Shu bilan birga, mamlakatning qulay geosiyosiy joylashuvi iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Tikuvchilik sanoati yengil sanoatning yana bir yetakchi bo'g'ini bo'lib, uning umumiy hajmidan 20 foizga yaqinini tashkil etadi. Bu tarmoqning samarali faoliyati asosan to'qimachilik sanoatining rivojlanishiga bog'liqdir. Hududlarda tikuvchilik korxonalarini joylashtirishda esa quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- xomashyo, yoqilg'i va mehnat resurslari yetarli bo'lgan joylarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- korxonalarni iste'molchi hududlarga yaqinlashtirish;
- iqtisodiy rayonlarda madaniy va xo'jalik rivojlanishi muvozanatini ta'minlash;
- mavjud mehnat zaxiralaridan oqilona foydalanish.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida yengil sanoatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni yanada ortdi. Bugungi kunda sanoatda band aholining uchdan bir qismi aynan shu sohada ishlaydi. Respublikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 24 foizi yengil sanoat hissasiga to'g'ri keladi. To'qimachilik mahsulotlarining 75 foizi esa zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan qo'shma va xorijiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, yengil sanoatning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,7 foizni, sanoat mahsulotlari hajmida 26,2 foizni, nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda esa 44 foizdan ortig'ini tashkil etadi [3].

Mamlakatda to'qimachilikni chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega tarmoq shakllanib, uni rivojlantirish bo'yicha maxsus farmon ham qabul qilindi. Unda:

- ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish,
- boshqaruv tizimini takomillashtirish,
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish,
- klaster modelidan samarali foydalanish,
- dizaynerlik va innovatsion ishlanmalarni keng joriy etish,
- kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Hududlar rivojida muvozanatni ta'minlash, iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va aholini barqaror band qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Har bir viloyat va tuman o'zining ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi, shuning uchun sanoatni hududiy imkoniyatlarga mos holda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [2].

Bugungi kunda to'qimachilik sanoati respublika umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmining 15,9 foizini tashkil etmoqda. Aholi sonining ortishi va xarid qobiliyatining o'sishi esa yengil sanoatning barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yengil sanoatning mintaqaviy xususiyatlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu tarmoq nafaqat aholini asosiy iste'mol tovarlari bilan ta'minlaydi, balki eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy resurslarni qayta ishlash va hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda ham asosiy drayver vazifasini bajaradi.

Mamlakatning turli hududlari iqtisodiy, demografik va resurs salohiyati jihatidan farq qiladi. Shu sababli, yengil sanoat korxonalarini joylashtirishda ilmiy-nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni uyg'unlashtirish



muhim ahamiyatga ega. A. Veberning “shtandort” nazariyasi, V. Kristallerning “markaziy joy” konsepsiyasi va M. Porterning “klaster va raqobat afzalliklari” nazariyalari shu yo‘nalishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ulardan samarali foydalanish orqali transport xarajatlarini kamaytirish, ishchi kuchidan to‘g‘ri foydalanish va hududiy infratuzilmani optimal rivojlantirish mumkin.

Hududiy tafovutlarni bartaraf etish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shu maqsadda, ayrim viloyatlarda sanoat infratuzilmasini yangilash, kichik sanoat zonalarini tashkil etish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xorijiy investisiyalarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sanoatning barcha hududlarda mutanosib rivojlanishini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda yengil sanoatni rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish zarur: korxonalarni ilmiy asosda joylashtirish va hududiy salohiyatdan to‘liq foydalanish; klaster tizimini rivojlantirish va ishlab chiqarish zanjirini uyg‘unlashtirish; innovatsiya va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish; mahalliy xomashyo va resurslardan oqilona foydalanish; hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish.

Aynan shu omillar asosida yurtimizda yengil sanoatning barqaror va muvozanatli rivojlanishi ta‘minlanadi, mamlakatning eksport salohiyati oshadi va aholining turmush darajasi yanada yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ngai E. T., Peng S., Alexander P., Moon K. L. Decision support and intelligent systems in the textile and apparel supply chain: An academic review of research articles // Expert Systems with Applications. — 2023. — Vol. 41, Iss. 1. — P. 81–91.
2. 2017-2021 yillarda o‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola.-TDIU.-T.: “Ma’naviyat”
3. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti ma’lumotlari. <http://uza.uz/oz/business/> engil-sanoat-yuksalmo-da.
4. Turobjonov S. O‘zbekiston Respublikasi sanoati: qisqacha tarixi, rivojlanish istiqbollari. vuammolari-T.: Fan va texnologiya, 2017.-460 b.
5. Zaxidov G. O‘zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi: Iqt.f.bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser.-T.2020.
6. Салиев А., Янчук С. Размещение производительных сил и поляризованное развитие экономики Республики Узбекистан.-Т.: Университет, 2005.-173 с.
7. Поляка Г. Региональная экономика.-М.:Юнити-Дана, 2023.-464 с.
8. Ильина Т.С. Методы исследования региональных социально-экономических систем. Экономика Вестник Чувашского университета. 2022. № 4. -366 с.
9. Batirova N. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida mintqa sanoati rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. I.f.b.f.d.(PhD) ilm.daraj. olish. uchun. yozilg. diss. 2021 y.
10. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo‘jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853)
11. Fayziev , O. ., Abdug‘anieva , S. ., & Yo‘ldoshboev , A. . (2022). Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yuritishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va xususiyatlari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(6), 79–81. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJLFAS/article/view/2387>
12. O.R.Fayziyev, A.H.Yo‘ldoshboev. Ishlab chiqarish xarajatlarning boshqaruv hisobini tashkil etishning asosiy tamoyillari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 20.06.2022 й., 9-сон. Б. 308-311



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
